MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQ TUSHUMLARI VA TRANSFERTLAR NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH.....	1531
Muxitdinov Sidikxo'ja Akobirxo'ja o'g'li	
BANK TIZIMI ORQALI YASHIL MOLIYANI RIVOJLANTIRISH: GREEN ADVISORY SERVICES XIZMATLARINING ZAMONAVIY AMALIYOTI.....	1537
Abdumutalova Gulrux Shuxratjon qizi	
ISLOMIY MOLIYA VA RAQAMLI BANK EKOTIZIMLARINING INTEGRATSIYASINING O'ZBEKISTONDAGI ISTIQBOLLARI	1544
Galatov Abbos Alibekovich	
AGROSERVIS XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI.....	1551
Abilov Feruz Nematullayevich	
TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI KREDITLARI AMALIYOTI BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	1554
Jabbarov Nodir Umirovich	
OLIY TA'LIM MALAKALARINI XALQARO TAN OLIISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI: BOLONYA JARAYONI VA YUNESKO GLOBAL KONVENSIYASI QIYOSIY TAHLILI	1559
Saidov Muxammad Ali Hakimovich, Iminoxunov Abduqahhor Abduvohidovich	
IQTISODIY O'SISHNING NAZARIY ASOSLARI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR TAHLILI.....	1563
G'ulomjan Matkarimov	
O'ZBEKISTONDA MUZEY TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI.....	1568
Yulduz Urinbayeva	
DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR THE DIGITALIZATION OF TANGIBLE TECHNICAL ASSET INVENTORY IN THE DIGITAL ECONOMY.....	1573
Izzatilla Pulatov Quدراتillayevich	
THE IMPACT OF NATIONAL ECONOMY COMPETITIVENESS ON ECONOMIC GROWTH	1581
Siddikov Askar Axrorovich, Turapov Siroj Mamadoli o'g'li	



TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AGRAR SEKTORNI MOLIALASHTIRISH TIZIMI TAKOMILLASHTIRISH YO'NASHISHLARI	1585
Azizov Shuxrat Maxmutovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI O'QITISHGA QARATILGAN LOYIHALARINI MOLIALASHTIRISH MEXANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIK TAHLILI.....	1593
Rapiyev Alisher Parda o'g'li, Toshboyev Ikrom O'ktamovich	
MINTAQALARNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK SALOHİYATI AHAMIYATINING ILMIY-NAZARIY JIHATLARI	1597
Madaminov Damir Abduraxmanovich	
АБСОРБЦИОННАЯ СПОСОБНОСТЬ И ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТЬ ТРУДА: МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ МЕЖСТРАНОВОГО АНАЛИЗА	1602
Султанова Л.Ш.	
KADRLAR MENEJMENTIDA MOTIVATSIYA TIZIMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1607
Latipov Ashur Ali Rustam o'g'li, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHI VA MILLIY IQTISODIY STRATEGIYAGA TA'SIRI	1612
Artikova Shoxida Ilyasovna, Xakimov Damir Ulug'bekovich	
"YASHIL" IQTISODIYOT TAMOIYILLARI ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'LLARI	1616
Rustamov Narzillo Istamovich	
KATTA HAJMDAGI MA'LUMOTLAR (BIG DATA) ORQALI EKOLOGIK VA IQTISODIY JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH.....	1621
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
ТОРГОВЫЙ БАЛАНС МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИКУ: АНАЛИЗ ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1627
He Xiaogu, Urkinbaev T. A.	
РЕЙТИНГОВАЯ ОЦЕНКА ЭКОЛОГИЧЕСКИХ АСПЕКТОВ ДЛЯ ДАЛЬНЕЙШЕГО РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	1632
Тураева Сурия	
HUDUDLARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA ERKIN IQTISODIY HUDUDLARNING O'RNI	1641
N. Tursunov	
ВНЕДРЕНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ НЕЙРОМАРКЕТИНГА В В2В- И В2С-СЕКТОРАХ ПЛОДООВОЩНОЙ ИНДУСТРИИ.....	1646
Садий Шукрилло Асатилло угли	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ В ПРИВЛЕЧЕНИИ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ	1653
Qian Xuanhong, Вохидова Мехри	
MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH — KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA.....	1659
Xolmuratov Salimbek Eshbekovich	
DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	1663
Valiyeva Gulxayyo, Samandarova Gulmira	
YASHIL TURIZMNING MOHIYATI VA UNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	1666
Qurbanbayev Shuhrat Bakbergenovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA ISLON BANKLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	1670
S. Sayfullayev	
IT LOYIHALARINI BOSHQARISHNING TASHKILIY JIHATLARI	1675
Mansurova Bibinur Miyirbek Qizi	
O'ZBEKISTONNING INVESTITSIYA SIYOSATI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	1679
Babaeva Nargiza Muzafarovna	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH DASTURLARINI BAJARILISHIDA MOLIAVIY SIYOSAT DOIRASIDA MOLIAVIY DASTAKLARDAN FOYDALANISHDAGI TENDENSIYALAR TAHLILI	1686
Mirzaxalikov Bobir Baxtiyorovich	



KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI	1692
Mullajanov Iskandar Tadjibayevich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING KOMMUNIKATSIYALARI VA KONTENT MARKETINGNING O'RNI	1697
Bozorov Samar Safarovich	
JANUBIY KOREYADA TIBBIY TURIZMNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TAJRIBASI	1702
Azizova Nazira To'xtayevna	
MINTAQADA EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI TAHLILI	1708
Odilov Xamidillo Maxmudjon o'g'li	
"IMPROVEMENT OF ECONOMIC MECHANISMS FOR ENSURING RESOURCE ECONOMY IN THE FIELD OF COTTON GROWING IN THE AGRARIAN SECTOR.....	1715
Mirzaev Batir, Djumabaeva Nurzada Torebekovna	
TRANSCHEGARAVIY ELEKTRON TIJORATDA BOJXONA TO'LOVLARI HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	1719
Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббарович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек угли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахытбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZIMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQRISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH.....	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL.....	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI.....	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI.....	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK-DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH.....	1970
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI.....	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQRISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR.....	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQRISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	



МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ	2012
Садыков Жахонгир Насырджанович	
TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzбек Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	2050
Achilov Ilmurad Nematovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLLIQI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHATLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIYQ-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	



DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI.....	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIVAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALARI	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФИОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIVAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	



HUDUDIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abdukarimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	



AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI

Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li

TDSHU tayanch doktoranti

E-mail: shohruh_mardonov@tsuos.uz

ORCID: [0009-0002-2722-3231](https://orcid.org/0009-0002-2722-3231)

Annotatsiya. Maqolada Toshkent aglomeratsiyasidagi jadal urbanizatsiya jarayonlari va ular keltirib chiqarayotgan tizimli muammolar tahlil qilingan. Muallif tomonidan London, Seul va Tokio kabi yirik megapolislarning havo sifatini nazorat qilish, transport oqimini boshqarish va resurslarni tejash borasidagi tajribasi o'rganilgan. Tadqiqot natijasida Toshkent aglomeratsiyasi uchun raqamli texnologiyalarga asoslangan besh bosqichli boshqaruv modeli va "Aqlli monitoring" tizimi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Toshkent aglomeratsiyasi, urbanizatsiya, raqamlashtirish, ULEZ tizimi, TOPIS tizimi, aqlli shahar, ekologik monitoring, transport boshqaruvi.

Abstract. The article analyzes the intensive urbanization processes in the Tashkent agglomeration and the resulting systemic challenges. The author examines the experience of major metropolises such as London, Seoul, and Tokyo in air quality control, traffic management, and resource conservation. Based on the research findings, a five-stage management model and a "Smart Monitoring" system based on digital technologies are proposed for the Tashkent agglomeration.

Key words: Tashkent agglomeration, urbanization, digitalization, ULEZ system, TOPIS system, Smart City, environmental monitoring, traffic management.

Аннотация. В статье анализируются процессы интенсивной урбанизации в Ташкентской агломерации и возникающие системные проблемы. Автор исследует опыт крупнейших мегаполисов, таких как Лондон, Сеул и Токио, в области контроля качества воздуха, управления транспортными потоками и ресурсосбережения. По результатам исследования предложена пятиэтапная модель управления и система «умного мониторинга» на основе цифровых технологий для Ташкентской агломерации.

Ключевые слова: Ташкентская агломерация, урбанизация, цифровизация, система ULEZ, система TOPIS, умный город, экологический мониторинг, управление транспортом.

KIRISH

Bugungi kunda Toshkent aglomeratsiyasi hududida urbanizatsiya jarayonlari jadal sur'atlar bilan kechmoqda. Aholining tabiiy o'sishi va migratsiya oqimlarining kuchayishi, transport vositalari sonining ortishi, shuningdek, qurilish va sanoat tarmoqlarining kengayishi o'zaro bog'liq murakkab muammolar majmuini yuzaga keltirmoqda. Ushbu jarayonlar ekologik holatga, shaharsozlik rejalashtirishiga hamda investitsiya muhitiga tizimli ta'sir ko'rsatib, shahar boshqaruvida yangicha va kompleks yondashuvlarni talab etmoqda.

Mazkur sharoitda aglomeratsiyalar rivojlanishini samarali tartibga solish uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Raqamli yechimlar orqali transport oqimlarini optimallashtirish, atrof-muhit holatini real vaqt rejimida monitoring qilish, yer va suv resurslaridan foydalanishni oqilona boshqarish imkoniyatlari kengayadi.



Ta'kidlash joizki, bu borada jahon tajribasi boy va xilma-xil bo'lib, uning ilg'or jihatlarini milliy shart-sharoitlar va hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda moslashtirish aglomeratsiyalar rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni samarali hal etishga xizmat qiladi. Xususan, London, Seul va Tokio kabi yirik aglomeratsiyalar tajribasini o'rganish va umumlashtirish havo sifati monitoringi, trafik zichligini hisoblash, shuningdek, suv va yer resurslaridan foydalanishni raqamlashtirishga asoslangan "aqlli" monitoring tizimini ishlab chiqish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur tajribalar asosida mahalliy sharoitlarga moslashtirilgan raqamli boshqaruv modeli Toshkent aglomeratsiyasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, ekologik xavfsizlikni kuchaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Aglomeratsiyalarni boshqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash masalasi bugungi kunda jahon ilmiy hamjamiyati e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, William J. Mitchell, Christopher E. Borroni-Bird va Lawrence D. Burns zamonaviy shaharsozlik, raqamli texnologiyalar hamda "aqlli shahar" (Smart City) konsepsiyasining yetakchi nazariyotchilari sifatida e'tirof etiladi. Ushbu olimlar shahar infratuzilmasini yagona "raqamli asab tizimi" sifatida talqin qilib, raqamli boshqaruv yechimlari shahar transporti va resurslaridan foydalanish samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ilmiy asoslab berganlar. Jumladan, Seul shahrida joriy etilgan TOPIS (Transport Operation and Information Service) tizimi tirbandlik darajasini 20-30 foizga qisqartirish imkonini bergani empirik tadqiqotlar bilan tasdiqlangan [2].

Ekologik iqtisodiyot sohasidagi yetakchi mutaxassislardan biri – Matthew E. Kahn – o'zining Green Cities: Urban Growth and the Environment asarida urbanizatsiya jarayonini ekologiya uchun faqat xavf omili sifatida emas, balki resurslarni markazlashgan va samarali boshqarish imkoniyati sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, shahar zichligini raqamli texnologiyalar yordamida oqilona boshqarish transportdan chiqadigan zararli emissiyalarni kamaytirishning eng maqbul va barqaror yo'llaridan biri hisoblanadi [3].

Shuningdek, Tokio tajribasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda, xususan Tokyo Metropolitan Government tomonidan 2021-yilda e'lon qilingan hisobotlarda suv va energiya resurslari isrofini kamaytirishda IoT (Buyumlar interneti) sensorlari va aqlli monitoring tizimlarining ahamiyati yuqori baholangan [9]. Mazkur texnologiyalar real vaqt rejimida ma'lumot yig'ish va tahlil qilish orqali shahar infratuzilmasini aniq va moslashuvchan boshqarish imkonini beradi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda, xususan Toshkent aglomeratsiyasini boshqarishda xorijiy "aqlli shahar" modellarini mahalliy sharoitlarga moslashtirish (lokalizatsiya qilish) masalasi hali yetarli darajada kompleks ilmiy tadqiq etilmagan. Bu holat mazkur yo'nalishda chuqurlashtirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, xalqaro tajribani tizimli tahlil qilish va milliy raqamli aglomeratsiya boshqaruvi modelini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tizimli yondashuv va kompleks tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot doirasida yirik xalqaro aglomeratsiyalar – London, Seul va Tokio – ning aglomeratsiya boshqaruvi modellari qiyosiy tahlil qilindi. Ushbu jarayonda ularning raqamli va texnologik yechimlari, shuningdek, amaliyotda erishilgan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) tizimli ravishda baholandi.

Shu bilan birga, Toshkent shahrida transport oqimlari intensivligi, havo ifloslanish darajasi hamda suv va energiya resurslaridan foydalanish samaradorligiga oid ochiq statistik va institutsional ma'lumotlar o'rganildi. Ushbu ma'lumotlar asosida mavjud holat tahlil qilinib, muammoli jihatlar aniqlashtirildi.

Raqamli texnologiyalarni aglomeratsiya boshqaruvida joriy etish natijasida kutilayotgan iqtisodiy va ekologik samaradorlik matematik modellashtirish hamda ekspert baholash usullari yordamida hisoblab chiqildi. Natijalar raqamli boshqaruv yechimlarining Toshkent aglomeratsiyasida qo'llanilishi barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlashda yuqori salohiyatga ega ekanligini ko'rsatdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, London aglomeratsiyasi boshqaruvida asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri transportdan chiqadigan zararli gazlar hajmini qisqartirish hisoblanadi. Mazkur maqsadda shaharda ULEZ (Ultra Low Emission Zone) tizimi joriy etilgan bo'lib, u shahar havosini transport chiqindilaridan tozalashga qaratilgan eng qat'iy va samarali mexanizmlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Ushbu tizim dastlab Londonda amaliyotga tatbiq etilgan bo'lib, hozirgi kunda ko'plab megapolislarga namuna bo'lib xizmat qilmoqda.

ULEZ tizimining asosiy konsepsiyasi atrof-muhitga eng katta zarar yetkazadigan, ya'ni eskirgan va yuqori darajada ifloslantiruvchi transport vositalarining shahar hududiga kirishini cheklashdan iborat. Shahar markaziga faqat belgilangan ekologik standartlarga javob beradigan avtomobillar kirishiga ruxsat etiladi.



Amaldagi talablarga ko'ra, benzin dvigatelli avtomobillar Euro 4, dizel dvigatelli transport vositalari esa Euro 6 standartlariga mos bo'lishi lozim. Ushbu talablarga javob bermaydigan avtomobil egalari zonaga kirgan har bir kun uchun Londonda o'rtacha £12.50 miqdorida to'lov amalga oshirishlari shart. Tizim yil davomida, sutkaning 24 soati ishlaydi (Rojdestvo bayrami mustasno).

ULEZ tizimining texnologik asosini ANPR (Automatic Number Plate Recognition) – davlat raqamlarini avtomatik aniqlovchi kameralar tashkil etadi. Zonaning barcha kirish va chiqish nuqtalariga o'rnatilgan ushbu kameralar har bir transport vositasining raqamini skanerlab, uni transport vositalarini ro'yxatga olish bazasi bilan solishtiradi hamda dvigatelning ekologik talablarga muvofiqligini soniyalar ichida aniqlaydi. Agar avtomobil belgilangan standartlarga javob bermasa va kunlik to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa, tizim avtomatik tarzda jarima xatini shakllantirib, egasiga yuboradi.

Bundan tashqari, London bo'ylab yuzlab yuqori aniqlikdagi havo sifati datchiklari o'rnatilgan bo'lib, ular real vaqt rejimida ekologik holatni monitoring qiladi. Ushbu ma'lumotlar ochiq raqamli xaritalarda aks ettiriladi va aholiga qaysi hududlarda harakatlanish ekologik jihatdan xavfsizroq ekanini ko'rsatadi. Shahar miqyosidagi barcha ma'lumotlar London Datastore platformasida jamlanadi. Mazkur platforma olimlar, tadqiqotchilar va startaplar uchun havo sifatini yaxshilashga qaratilgan yangi raqamli yechim va ilovalarni ishlab chiqish imkonini yaratadi.

London tajribasi shuni ko'rsatadiki, ULEZ tizimi joriy etilgach, shahar muhitida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, shahar markazida havo ifloslanishi darajasi 40-50 foizgacha kamaygan, havo sifatining yaxshilanishi natijasida astma va boshqa nafas yo'llari kasalliklari bilan bog'liq shifoxonaga murojaatlar sezilarli darajada qisqargan. Shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlari jarimalardan qochish va qulaylikni oshirish maqsadida eskirgan avtomobillarni ekologik toza transport vositalari yoki elektromobillarga almashtirishga faol o'ta boshlagan.

Transport boshqaruvi tizimi borasida Seul tajribasi ham alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu shahar dunyodagi eng ilg'or transport boshqaruvi platformalaridan biri – TOPIS (Transport Operation and Information Service) bilan mashhur. Seulda barcha avtobuslar, taksilar va metro tizimi GPS texnologiyalari orqali yagona markazlashgan platformaga ulangan bo'lib, tizim real vaqt rejimida tirbandliklarni aniqlaydi va svetoforlarni avtomatik tarzda moslashtiradi.

Shuningdek, Seul shahrida tungi avtobus yo'nalishlari ("Owl Bus") mobil aloqa operatorlarining katta hajmdagi ma'lumotlari asosida optimallashtirilgan. Ya'ni, aholining kechki va tungi vaqtda qaysi hududlarda ko'proq to'planishi tahlil qilinib, yo'nalishlar shunga mos ravishda shakllantiriladi. Bundan tashqari, haydovchilar mobil ilovalar orqali bo'sh avtoturargohlarni oldindan ko'rish va bron qilish imkoniyatiga ega bo'lib, bu transport oqimlarini yanada tartibli boshqarishga xizmat qiladi.

1-jadval. Shahar boshqaruvida xalqaro tajribaning mahalliy adaptatsiyasi

Shahar (Mintaqa)	Tajriba yo'nalishi	Mahalliy moslashuv mexanizmi
London (Yevropa)	Havo Sifati va Ultra Past Emissiya Zonalari (ULEZ)	Qattiq shaharsozlik qoidalari va harakatni cheklash sxemalari uchun aniq sensor ma'lumotlaridan foydalanish.
Seul (Sharq)	Yuqori texnologiyali trafik boshqaruvi (TOPIS)	Mavjud svetofor tizimlarini trafik zichligi ma'lumotlari bilan bog'lash orqali AI-ga asoslangan optimallashtirish.
Tokio (Sharq)	Resurslardan Yuqori Samaradorlik	Suv tizimlarida oqishni aniqlashning aqlli texnologiyalarini mahalliy tarmoqqa integratsiya qilish.

Tokio tabiiy resurslardan tejamkor foydalanish hamda yer osti infratuzilmasini raqamlashtirish sohasida dunyodagi yetakchi shaharlar qatoridan o'rin egallaydi. Xususan, Tokioda suv quvurlaridan sizib chiqish (leakage) darajasi dunyo miqyosida eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, 3 foizdan kamni tashkil etadi. Ushbu natijaga yuqori sezuvchan akustik sensorlar, shuningdek, suv bosimini real vaqt rejimida raqamli nazorat qilish tizimlari orqali erishilgan.

Tokioning yuqori darajadagi urbanizatsiyasi va zich qurilishi sharoitida yer ostidagi barcha kommunikatsiyalar – metro tarmoqlari, suv va gaz quvurlari, elektr va aloqa kabellari – raqamli 3D xaritalar asosida boshqariladi. Bu yondashuv qurilish va rekonstruksiya jarayonlarida avariya xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Bundan tashqari, suv toshqinlari va zilzilalarni monitoring qilish maqsadida shahar bo'ylab minglab sensorlar o'rnatilgan bo'lib, ular xavf yuzaga kelganda aholini avtomatik ogohlantirish imkonini beradi.

Yuqoridagi tajribalarni umumlashtirgan holda, Toshkent aglomeratsiyasi uchun havo sifati monitoringi, trafik zichligini hisoblash, suv va yer resurslaridan foydalanishni raqamlashtirishga qaratilgan aqlli monitoring tizimi loyihasini mahalliy sharoitlarga moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur loyiha doirasida havo sensorlari tarmog'i, trafikni boshqarish algoritmlari hamda suv quvurlaridagi isrofchiliklarni aniqlash va oldini olish mexanizmlarini joriy etish taklif etiladi.



Taklif etilayotgan loyiha London, Seul va Tokio kabi yirik megapolislarda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan ilg'or tajribalarga asoslanib, Toshkent aglomeratsiyasining hududiy, demografik va infratuzilmaviy xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Loyihani amalga oshirish jarayoni beshta ketma-ket strategik bosqich asosida tashkil etilishi lozim:

Birinchi bosqich – rejalashtirish va konsepsiyalashtirish. Ushbu bosqichda xorijiy tajribalarni lokal sharoitlarga moslashtirish, texnologik ehtiyojlarni aniqlash, shuningdek, shahar va unga tutash hududlar uchun zarur bo'lgan investitsiyalar hajmi, moliyalashtirish manbalari va mexanizmlarini belgilash amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqich – texnik infratuzilmani joriy etish. Bu bosqichda havo sensorlari, trafik kameralari va raqamli suv hisoblagichlarini belgilangan hududlarga o'rnatish ishlari olib boriladi. Mazkur jarayonga yetakchi xorijiy va mahalliy mutaxassislarni jalb etish loyiha samaradorligini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

Uchinchi bosqich – ma'lumotlarni tahlil qilish va vizuallashtirish. Ushbu bosqichda barcha ma'lumotlarni yagona markazda jamlaydigan "Aqlli boshqaruv markazi" (Dashboard) platformasi yaratiladi. Platforma orqali real vaqt rejimida monitoring, prognozlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyati ta'minlanadi.

To'rtinchi bosqich – sinov va pilot loyiha. Tizim dastlab cheklangan hududda sinovdan o'tkazilib, aniqlangan kamchiliklar asosida optimallashtiriladi. Bu bosqich texnologik va institutsional xatolarni oldindan bartaraf etish imkonini beradi.

Beshinchi bosqich – kengaytirish va integratsiya. Tizim butun aglomeratsiya hududiga joriy etilib, mavjud shahar boshqaruvi va infratuzilma platformalari bilan integratsiya qilinadi.

Loyiha ijrosi natijasida iqtisodiy va ekologik yo'nalishlarda sezilarli ijobiy natijalarga erishilishi kutilmoqda (2-jadval). Xususan, aglomeratsiya hududida ekologik holat yaxshilanadi, trafik oqimlari optimallashtiriladi hamda yillik hisobda millionlab so'm miqdorida iqtisodiy tejama erishish imkoniyati yaratiladi.

Shuningdek, yagona raqamli boshqaruv platformasi orqali shaharsozlik va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha tezkor, asoslangan va samarali qarorlar qabul qilish tizimi shakllantiriladi. Bu esa Toshkent aglomeratsiyasining barqaror rivojlanishini ta'minlashda muhim institutsional va texnologik poydevor bo'lib xizmat qiladi.

2-jadval. Loyihaning kutilayotgan natijalari va KPI ko'rsatkichlari

Yo'nalish	Kutilayotgan Samara	Ko'rsatkichlar (KPI)
Havo Sifati	Nafas yo'li kasalliklari pasayishi, aholi salomatligi yaxshilanishi.	PM2,5 va NOx darajasining yiliga 25% ga kamayishi.
Trafik zichligi	Tirbandlik va yoqilg'i sarfining kamayishi, sayohat vaqtining qisqarishi.	Yo'llarning o'rtacha o'tkazuvchanlik tezligining 10-12 km/soatga oshishi.
Resurs nazorati	Suv isrofgarchiligining oldini olish, irrigatsiya samaradorligi.	Suv yo'qotishlarining 20% ga kamayishi va yer hosildorligini optimallashtirish.

Shunday qilib, aglomeratsiyani boshqarishning raqamli konseptual sxemasi uchta o'zaro bog'liq asosiy darajadan iborat bo'lishi lozim.

1. Ma'lumotlar manbai (datchiklar darajasi)

Ushbu daraja real vaqt rejimida birlamchi ma'lumotlarni yig'ishni ta'minlaydi va quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

- havo sifatini o'lchovchi sensorlar, jumladan PM2.5 va NOx kabi ifloslantiruvchi moddalar konsentratsiyasini aniqlovchi qurilmalar;
- transport oqimini kuzatuvchi smart-kameralar, yo'l harakati zichligi va tirbandliklarni aniqlash uchun;
- suv va energiya sarfini o'lchovchi raqamli hisoblagichlar, resurslardan foydalanish samaradorligini monitoring qilish maqsadida.

2. Ma'lumotlarni qayta ishlash (markaziy xab)

Mazkur darajada yig'ilgan ma'lumotlar markazlashgan platformada jamlanadi va sun'iy intellekt (AI) hamda katta ma'lumotlar (Big Data) algoritmlari yordamida qayta ishlanadi. Ushbu jarayonlar prognozlash, naqshlarni aniqlash va muammoli holatlarni oldindan bashorat qilish imkonini beradi.

3. Ijro va nazorat darajasi (Dashboard)

Bu daraja boshqaruv qarorlarini qabul qilish va ularning ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi hamda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- shahar hokimiyati va tegishli xizmatlar uchun yagona monitoring paneli orqali real vaqt rejimida nazoratni amalga oshirish;
- transport tirbandligi yuzaga kelganda svetoforlarni avtomatik boshqarish va oqimlarni qayta yo'naltirish;
- havo ifloslanishi yoki boshqa xavf ko'rsatkichlari oshganda avtomatik ogohlantirish tizimini ishga tushirish.



Taklif etilayotgan konseptual sxema ma'lumotlarni yig'ishdan boshlab, ularni tahlil qilish va yakuniy boshqaruv qarorlarini qabul qilishgacha bo'lgan to'liq boshqaruv zanjirini qamrab oladi. Tizim "feedback" (qayta aloqa) tamoyili asosida ishlashi orqali aglomeratsiya infratuzilmasini real vaqt rejimida doimiy optimallashtirish imkonini beradi. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi, ekologik va transport muammolariga tezkor javob berish mexanizmi shakllanadi hamda aglomeratsiyaning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Toshkent aglomeratsiyasi hududida kuzatilayotgan ekologik holat, transport tizimi va infratuzilma bilan bog'liq muammolar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularni alohida-alohida emas, balki yagona integratsiyalashgan raqamli platforma orqali kompleks tarzda hal etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, London shahrida joriy etilgan ULEZ ekologik nazorat mexanizmi, Seulning TOPIS intellektual transport boshqaruvi modeli hamda Tokioda muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan resurslardan foydalanishni raqamli nazorat qilish tizimlarini mahalliy sharoitlarga moslashtirish aglomeratsiyani boshqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Taklif etilayotgan uch darajali konseptual sxema – ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va ijro-nazorat bosqichlarini qamrab olgan holda – shahar ma'muriyati va tegishli xizmatlarga real vaqt rejimida, dalillarga asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatini yaratadi. Mazkur yondashuv orqali ekologik, transport va resurslar bilan bog'liq jarayonlarni muvofiqlashtirilgan tarzda boshqarish ta'minlanadi.

Loyihani amaliyotga joriy etish natijasida havo ifloslanishini 25 foizgacha kamaytirish, transport harakati tezligi va uzluksizligini oshirish, shuningdek, suv va energiya resurslari bo'yicha yo'qotishlarni kamida 20 foizga qisqartirish hisobiga sezilarli iqtisodiy tejamkorlikka erishish kutilmoqda. Umuman olganda, mazkur raqamli boshqaruv modeli Toshkent aglomeratsiyasining barqaror rivojlanishini ta'minlash, aholining yashash sifatini yaxshilash hamda shahar boshqaruvida zamonaviy va samarali institutsional mexanizmlarni shakllantirish uchun mustahkam ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "“O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risida” PF-158-son Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Mitchell W.J., Borroni-Bird C.E. & Burns L.D. (2010). Urban Mobility for the 21st Century. Cambridge, MA; London: The MIT Press.
3. Kahn M.E. (2006). Green Cities: Urban Growth and the Environment. Washington, DC: Brookings Institution Press. 160 p.
4. Zokirov S.S. (2018). O'zbekistonda urbanizatsiya jarayonlari va shahar aglomeratsiyalarini rivojlantirishning metodologik jihatlari. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali, №3.
5. Batty M. (2018). Inventing Future Cities. Cambridge, MA: MIT Press. 282 p.
6. Greater London Authority. (2018). London Environment Strategy. London.
7. Seoul Metropolitan Government. (2022). Seoul Transport Operation & Information Service (TOPIS): Annual Report. Seoul.
8. Tokyo Metropolitan Government. (2021). Creating a Sustainable City: Tokyo's Environmental Policies. Tokyo.
9. Bibri S.E. (2018). The Eco-City and its Communication 4.0: The Role of Information and Communication Technologies in Shaping Urban Environmental Sustainability. Cham: Springer.
10. United Nations. (2019). World Urbanization Prospects: The 2018 Revision. New York: United Nations.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>